

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MAXATOVA NOZIMA ISMATILLO QIZI

**ZAMONAVIY RAHBAR BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI GENDER
TAFOVUTLARNING IJTIMOY-ETNIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya.

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd)
по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on the psychological sciences**

Maxatova Nozima Ismatillo qizi

Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning
ijtimoiy-etnik xususiyatlari 3

Махатова Нозима Исмаилло кизи

Социально-этнические особенности гендерных различий в
управленческой деятельности современного руководителя 23

Maxatova Nozima Ismatillo kizi

Socio-ethnic features of gender differences in the management activities
of a modern manager 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MAXATOVA NOZIMA ISMATILLO QIZI

**ZAMONAVIY RAHBAR BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI GENDER
TAFOVUTLARNING IJTIMOIIY-ETNIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya.

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3PhD/P297 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jabborov Azim Meyliqulovich psixologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponenlar	Ganjiyev Feruz Furqatovich psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Hayitov Oybek Eshboyevich psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2024.P.72.06 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «9-dekabr» kuni soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.:+99865221-29-14; faks: +998365 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D12736 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. (Tel.: +998365221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «2» dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil «2» dekabr dagi 32 raqamli reyestr bayonnomasi.)


Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent


M. Xuseynova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarining ijtimoiy-etnik xususiyatlari muammosi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) 2022-yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha xizmatlar ko'rsatish sohasida erkaklarning 42,6 % va jami ayollarning yarmidan ortig'i faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Rossiyada 2021-yil holatiga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasi, uy-joy kommunal xo'jaligi, savdo va boshqa faoliyat sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlarning 70 % dan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda¹. Zamonaviy menejmentda ro'y berayotgan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv lavozimlarida erkaklarga qaraganda ayollar nisbati tez sur'atlarda oshib bormoqda. Bunday rahbarlar o'z xodimlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holatidan xabardorligi, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishiligi, ular bilan munosabatlarga kirishimliligi, muloqot va muomalada ochiqligi, xodimlarning rahbarga nisbatan ishonchini oshirish masalalari bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini tadqiq qilish bo'yicha zamonaviy innovatsion usullarni qo'llash yo'li bilan yangi ilmiy natijalarga erishishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Dunyoimizning o'zgarishi: 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish uchun Kun tartibi» dasturi hamda «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun taraqqiyot siyosatiga doir tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash» (MAPS²) yondashuviga asoslanib, boshqaruv tizimi uchun rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash, nomzodlarning bilim darajasi va malakasini oshirish bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaratish hamda ularga ko'rsatiladigan xizmat usullarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda rahbar xodimlar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganish, rahbarlarning psixologik imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi, faoliyati davomida uchraydigan turli munosabatlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni osonlik bilan yengishi, o'zining imkoniyatlaridan yanada unumli foydalana olishi, gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Mazkur yangilanishlar davlat boshqaruvi tizimining samadorligini oshirishga qaratilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. «Yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu siyosiy jarayonni milliy qonunchiligimiz

¹ <https://www.ilo.org/ru/regions-and-countries/europe-and-central-asia/gruppa-tekhnicheskoy-podderzhki-povoprosam-dostoynogo-truda-i-byuro-mot>

² <https://www.un.org/ru>

asosida tashkil qilish hayotiy tamoyilga aylanishi shart»¹. Zero, bu jarayonda eng avvalo ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlariga doir tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki «...faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi»².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5763-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmonlarida, 2018-yil 30-maydagi «Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3755-son, 2019-yil 11-iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-son Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi «Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlash bo'yicha «Taraqqiyot» respublika tanlovi finali ishtirokchilari orasidan boshqaruv kadrlari zahirasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 1018-son qarori hamda boshqaruv faoliyatiga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.S.Abdullajonova, X.Alimov, Sh.R.Baratov, N.Boymurodov, M.G.Davletshin, O.E.Hayitov, L.U.Inagamova, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, I.Maxmudov, D.G.Muxamedova, N.Ro'ziqulov, N.S.Safoyev, E.N.Sattorov, O.Shamiyeva, M.Yo'ldoshev, Sh.M.Ulug'ova, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalar zamonaviy rahbarning boshqaruv faoliyati, rahbarlik uslublari va funksiyalari, milliy madaniy muhitda rahbar va boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, boshqaruvdagi gender tafovutlar borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.S.Vigotskiy, I.P.Volkov, Y.P.Ilin, M.A.Kotik, D.A.Leontev, V.L.Marishuk, A.B.Petrovskiy, A.S.Puni, L.R.Pravdina, S.L.Rubinshteyn, P.A.Rudik, V.F.Sopov, A.M.Stolyarenko, N.B.Stambulova, V.N.Tomalinsev, Y.L.Xanin, R.M.Zagaynov

¹. Mirziyoyev Sh.M. «Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi». T.: «O'zbekiston». 2019. 45 b.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr // <https://lex.uz>

va boshqalar zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlar bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan A.Adler, E.Bern, E.Fromm, Z.Freyd, B.Fridan, A.Louen, J.Mitchell, K.Millet, D.Maers, F.Perlz, G.Sele, K.Rodgers, K.Xorni, R.Plutchik, G.Rubin, X.Xartman va boshqalar olib borilgan ilmiy izlanishlarida gender tafovutlarning psixologik xususiyatlari to‘g‘risida sharhlar berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Zamonaviy psixologiya sohalarida shaxs xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlarining ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlari» mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan (2019-2023 yy.)

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

rahbar boshqaruv faoliyatining nazariy-metodologik va amaliy asoslarini o‘rganish asosida zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik modelini ishlab chiqish va takomillashtirish;

zamonaviy rahbar ayol va erkak boshqaruv faoliyatida o‘z vazifasiga kognitiv, ma‘naviy-psixologik hamda hissiy-emotsional mosligida ko‘rinadigan gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini tadqiq qilish;

boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlariga doir psixologik mexanizmlarni rivojlantirish orqali turli xil vaziyatlarda rahbar, jamoa va xodim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning zamonaviy usullarini dalillash;

zamonaviy boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik bog‘liqlik tendentsiyalari namoyon bo‘lish xususiyatlariga qarab rahbar va xodimlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatining ustuvor strategiyalarini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlari tanlangan bo‘lib, tadqiqotga Qashqadaryo viloyati Kasbi, Qarshi va Muborak tumanlaridan 160 nafar (shundan 85 nafar erkak va 75 nafar ayol) hamda Buxoro viloyati Jondor, Buxoro va Kogon tumanlaridan 135 nafar (shundan 70 nafar erkak va 65 nafar ayol), jami 295 nafar (shundan 155 nafar erkaklar va 140 nafar ayollar) turli yoshdagi rahbar kadrlar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kuzatish, suhbat, anketa metodlardan, shuningdek, R.Yanov-Bulmanning «Tayanch e‘tiqodlar» metodikasi, R.Kettell tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxslilik xususiyatlarini aniqlash» metodikasi, Gans Ayzenkning «Shaxs individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash» testi, K.Tomasning «Ziddiyatli holatdan chiqishga bo‘lgan yetakchi motivatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlash» testi hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan «Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini

o'rganuvchi so'rovnomasi (A.M.Jabborov, N.I.Maxatova) va korrelyatsion tahlil, Studentning t-mezone usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rahbar boshqaruv faoliyatining nazariy-metodologik va amaliy jihatlarini o'rganish asosida zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik modeli xodimlarning dastlabki va kasbiy tayyorgarligi jarayonida ijtimoiy va etnopsixologik bilimlardan foydalanish komponentlarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

zamonaviy rahbar ayol va erkak boshqaruv faoliyatida o'z vazifasiga kognitiv, ma'naviy-psixologik va hissiy-emotsional mosligida ko'rinadigan gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini tadqiq qilish asosida differensial strategiyalar namoyon bo'lishi aniqlangan;

boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlariga doir psixologik mexanizmlarni rivojlantirish orqali turli xil vaziyatlarda o'zini va jamoa (xodim) faoliyatini to'g'ri nazorat qilish, yutuq va kamchiliklarni o'z vaqtida e'tiborga olish, nizoli holatlarda o'zini-o'zi va jamoani (xodimni) adekvat baholay olish imkoniyatlarini takomillashtirib borish zarurati dalillangan;

zamonaviy boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik bog'liqlik tendensiyalari namoyon bo'lish xususiyatlariga qarab rahbar va xodimlarning «jamoaga yo'naltirilganlik», «bir-biriga yo'naltirilganlik» va «ish faoliyatidagi tashkiliy o'zgarishlarga yo'naltirilganlik» ustuvor strategiyalarini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganish va undan oqilona foydalanish bo'yicha psixokorreksion-rivojlantiruvchi dastur tayyorlangan;

ta'lim tizimidagi turli jamoalarda yuzaga keladigan boshqaruv jarayonlarini psixologik o'rganish va tahlil qilish, shuningdek, ta'lim tizimida rahbar bo'lib ishlayotganlar faoliyatida ijtimoiy-etnik xususiyatlarga tayanishni o'rgatishga oid ma'lumotlar asosida qator ilmiy maqolalar tayyorlangan va chop etilgan;

zamonaviy boshqaruv psixologiyasiga doir tadqiqot natijalarini qo'llash asosida boshqaruv sohasida faoliyat yurituvchi kasb egalarining ijtimoiy-psixologik hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali faoliyat samaradorligiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik, miqdoriy ko'rsatkichlarning Studentning t-mezone va ma'lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturi vositasida asoslanganligi; muammoning aniq qo'yilganligi; nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi; keltirilgan tahlillarning suhbat, kuzatish, kontent-tahlil usullari yordamida amalga oshirilganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganish asosida rahbar faoliyatiga

doir konstruktiv ijtimoiy-madaniy omillarning boshqaruv faoliyatiga yo'naltirilganligi, ilmiy-amaliy jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilganligi, olingan natijalar nazariy asoslarni takomillashtirishga, rahbarlarning boshqaruv uslublarini o'zlashtirishlarida va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy ma'lumotlar va tavsiyalar rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalardan ilgari surilgan g'oyalar rahbar hamda xodimlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni shakllanishini tadqiq qiluvchi metodikalardan foydalanishda, jamoa bilan olib boriladigan psixoprofilaktik ishlar yo'nalishini aniqlashtirishda, shuningdek, «Rahbar psixologiyasi», «Psixologik xizmat» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

rahbar boshqaruv faoliyatining nazariy-metodologik va amaliy jihatlarini o'rganish asosida zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik modeli xodimlarning dastlabki va kasbiy tayyorgarligi jarayonida ijtimoiy va etnopsixologik bilimlardan foydalanish komponentlarini kiritish asosida takomillashtirilganligiga oid xulosa va tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-166-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» va «Marketing psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-166a-son ma'lumotnomasi). Natijada rahbar boshqaruv faoliyatining nazariy-metodologik va amaliy asoslarini o'rganish imkoniyati kengaytirilgan;

zamonaviy rahbar ayol va erkak boshqaruv faoliyatida o'z vazifasiga kognitiv, ma'naviy-psixologik va hissiy-emotsional mosligida ko'rinadigan gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini tadqiq qilish asosida differensial strategiyalar namoyon bo'lishi aniqlanganligi haqidagi ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-166-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya va «Marketing psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-166a-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy rahbar ayol va erkak boshqaruv faoliyatida o'z vazifasiga kognitiv, ma'naviy-psixologik va hissiy-emotsional mosligida ko'rinadigan gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini tadqiq qilish samaradorligi oshgan;

boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlariga doir psixologik mexanizmlarni rivojlantirish orqali turli xil vaziyatlarda o'zini va jamoa (xodim) faoliyatini to'g'ri nazorat qilish, yutuq va kamchiliklarni o'z vaqtida e'tiborga olish, nizoli holatlarda o'zini-o'zi va jamoani (xodimni) adekvat baholay olish imkoniyatlarini takomillashtirib borish zarurati dalillanganligiga oid

ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-166-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya va «Marketing psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-166a-son ma'lumotnomasi). Natijada boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlariga doir psixologik mexanizmlarni rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

zamonaviy boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik bog'liqlik tendensiyalari namoyon bo'lish xususiyatlariga qarab rahbar va xodimlarning «jamoaga yo'naltirilganlik», «bir-biriga yo'naltirilganlik» va «ish faoliyatidagi tashkiliy o'zgarishlarga yo'naltirilganlik» ustuvor strategiyalarini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-166-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya va «Marketing psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-166a-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlarning ijtimoiy-etnik bog'liqlik tendensiyalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 4 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, qo'llanilgan metodlar, tadqiqot obyekti hamda predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Rahbar boshqaruv faoliyatining nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender tafovutlar muammosiga doir yondashuvlar, ijtimoiy-psixologik tavsifi, xorij va rus psixologiyasida rahbar boshqaruv faoliyatining tadqiq etilishi, mamlakatimiz psixologiyasida rahbar boshqaruv faoliyatining o'rganilganlik holati tahlil qilingan. Olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatidagi gender

tafovutlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganish har davrda dolzarb mavzu ekanligi asoslangan.

Xorij olimlaridan Z.Freyd, K.Yung, D.B.Uotson, B.F.Skinner, J. Mitchell, J.Plek, G.Rubin, B.Fridan, K.Millet, X.Xartman va boshqalar gender munosabatlarini o'rganishga katta hissa qo'shib, jinslar o'rtasidagi munosabatlarni hokimiyat va gender diskriminatsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Gender xususiyatlarini ko'rib chiqishda erkaklar va ayollarning o'ziga xosligi, uning tarkibiy qismlari o'rganiladi: vakolatlar, rollar, stereotiplar, gender tabaqalanishi, tabaqalanish va ierarxiya bilan bog'liq munosabatlar tizimli o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan T.V.Bendas, T.D. Burmenko, N.I.Danelova N.N. Danilenko, K.Levin, V.Naysler, I.P.Pavlov, T.A.Turenko, A.Chirikova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollar yetakchiligi fenomenining ahamiyati, gender boshqaruvining mazmuni, tamoyillarini ochib berilishi, yetakchilik funksiyalarini amalga oshirish samaradorligi ikkala jins vakillarining yetakchilik xatti-harakatlarini qiyosiy tahlil qilinishi, ayol hamda erkak yetakchiligining o'ziga xos psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Boshqaruv psixologiyasiga oid muammolarni o'rganish bo'yicha mamlakatimiz psixologiyasida ham bir qator yutuqlar qo'lga kiritilgan. Jumladan, psixolog olimlar M.Davletshin, E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.Baratov, D.G.Muxamedova, E.N.Sattorov, I.Maxmudov, N.Boymurodov, F.Akramova, O.E.Hayitov, X.Alimov, O.Shamiyeva, M.Yo'ldoshev, Sh.Holiqova, N.Ro'ziqulov, Z.Abdurahmonova, L.U.Inagamova, Sh.M.Ulug'ova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular boshqaruv muammosiga ko'p qirrali yondashib, asosan rahbar shaxsi, uning boshqaruv mahorati, ish uslublari, boshqaruvning psixologik xususiyatlari, hozirgi zamon menejmentining siymosi va boshqa dolzarb muammolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilgan.

Dissertatsiyaning «**Rahbar boshqaruv faoliyatini tadqiq qilishning empirik natijalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida rahbar ayol va erkak shaxsining ma'naviy-psixologik (shaxsiy, kognitiv emotsional-qadriyatli, xulqiy) ko'rsatkichlari psixodiagnostikasi, rahbar ayol hamda erkak boshqaruv faoliyatida individual xususiyatlarning psixologik mezonlari, boshqaruv faoliyatidagi muomala odobining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari diagnostikasi asosli yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot doirasida olingan natijalar empirik dalillarga tayanib yoritib berilgan.

Dastlab, «Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnoma» orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz (1-jadval). «Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnoma» orqali olingan natijalarninig dastlabki statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, «madaniy moslashuvchanlik» ($t=-2,8$; $p<0,05$), «etnik ko'nikmalar» ($t=-2,6$; $p<0,05$) hamda «jamoaviy munosabatlar» ($t=-2,4$; $p<0,05$) omillarida ishonchli farqlar aniqlandi.

«Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o‘rganuvchi so‘rovnoma» orqali olingan natijalarning dastlabki statistik tahlili (n=295)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar
	Erkaklar, n=155	Ayollar, n=140	t
Madaniy moslashuvchanlik	13,4	11,6	-2,8*
Etnik ko‘nikmalar	12,4	10,3	-2,6*
Jamoaviy munosabatlar	13,1	11,2	-2,4*

Metodikaning dastlabki, «madaniy moslashuvchanlik» omili bo‘yicha erkak rahbarlarda yuqori natijalar kuzatildi ($t=-2,8$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, erkak rahbarlarda turli madaniyatlar bilan ishlashda o‘zlarini qulay his qilishlari va turli xil qadriyatlarni qabul qilishga tayyor ekanliklari, yangi madaniy muhitlarga tez moslasha olishlari, o‘z boshqaruv uslublarini turli xil madaniy guruhlarga qo‘llash qila olishlari, jamoada o‘zaro tushunish va hamjihatlikni yaxshilashga intiluvchanlikning yuqori ekanligi, o‘zlarini turli madaniy jamoalarning bir qismi sifatida his qilishlari va shu bilan birga jamoaning umumiy maqsadlariga hissa qo‘shishga tayyor bo‘lishlari kuzatildi. Shuningdek, turli madaniy kelib chiqishga ega bo‘lgan jamoa a‘zolari bilan samarali muloqot o‘rnatish ularning rahbarlikda ko‘p madaniy nuqtai nazarlarni hisobga olishlarini ta‘minlaydi. Jumladan, ular ko‘pincha turli madaniy kelib chiqishga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlashni ijobiy qabul qilishlari, yangi madaniyatlarni o‘rganish ular uchun qiziqarli jarayon hisoblanadi. Bu ularning rahbarlikda ochiq va ko‘p madaniy yondashuvni qabul qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, erkak rahbarlar madaniy xilma-xillikka ochiq bo‘lganligi sababli, ularning jamoada barcha a‘zolar bilan samarali ishlash salohiyati yuqori bo‘ladi.

Metodikaning navbatdagi «etnik ko‘nikmalar» omili bo‘yicha erkak rahbarlarda ijobiy natijalar qayd etildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Olingan natijalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, erkak rahbarlarda turli etnik guruhlar bilan ishlashga tayyor ekanliklari, boshqaruvda turli etnik kelib chiqishga ega shaxslarning ehtiyojlarini tushunishga harakat qilishlari va o‘z boshqaruv uslublarini moslashtira olishlari, etnik farqlarni inobatga olishda muvaffaqiyatli ekanliklari, jamoada turli etnik guruhlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga intilishlari, boshqaruvda etnik jihatdan farqli qarashlarni qo‘llab-quvvatlashlari, jamoadagi turli etnik guruhlarining maqsadlarini hisobga olishlari dalillandi. Bu etnik ko‘nikmalar jamoa a‘zolari o‘rtasida bir-birini yaxshiroq tushunishga, ishonchli munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular o‘z jamoalarida etnik xilma-xillikni hisobga olib, har xil etnik guruhlar o‘rtasidagi hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashga intilishlari aniqlandi. Bu ularning etnik jihatdan turli guruhlarning talablariga moslashuvchanlik ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

So'nggi «jamoaviy munosabatlar» omiliga ko'ra, erkak rahbarlarda yuqori natija aniqlandi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, erkak rahbarlarda jamoadagi barcha a'zolar bilan yaxshi aloqalarni o'rgatishga intilishi, ular o'rtasida ochiq va ishonchli munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor berishlari, jamoada o'zaro hurmat va hamjihatlikni oshirishga, jamoaviy qarorlarni qabul qilishda barcha a'zolarining fikrlarini inobatga olishga, ko'proq hamkorlik va o'zaro anglashuvni shakllantirishga harakat qilishlari dalillandi. Shuningdek, erkak rahbarlar jamoadagi turli madaniyat va etnik vakillar o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishni muhim deb hisoblaydilar. Jamoada o'zaro tushunishni oshirish orqali erkak rahbarlar ko'proq samarali jamoaviy muhit yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqot ishida R.Kettell tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxslilik xususiyatlarini aniqlash» metodika orqali olingan dastlabki natijalar tahlil qilinganligi e'tiborga loyiq (2-jadval). Natijalar tahlili bo'yicha rahbarlar orasidagi farqli holatlarni tahlil qilinganida odamovi va muloqotmandlik («A») va intellekt («V») omillari o'rtasida Buxoro viloyati va Qashqadaryo viloyati rahbarlari o'rtasida deyarli farqlar kuzatilmadi. Emotsional beqarorlik va emotsional barqarorlik («S») omili bo'yicha ham ishonchli farqlar kuzatilmagan. Bo'ysunuvchanlik-ustunlik («E») omili bo'yicha Buxoro viloyati va Qashqadaryo viloyati rahbarlari o'rtasida ($p\leq 0,05$) ishonchli farqlar mavjudligi kuzatildi. Buxoro viloyati rahbarlari orasida ayrim holatlarda tobelik kuzatilgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyati rahbarlari orasida esa mustaqil bo'lish holatining yuqoriligini kuzatish mumkin.

Tadqiqot davomida o'zini tuta olish-ekspressivlik («F») omili bo'yicha natijalar tahlil qilinganda Buxoro viloyati va Qashqadaryo viloyati rahbarlari o'rtasida ishonchli farqlar mavjudligi kuzatilmagan. Hissiyotga beriluvchi xatti-harakatning yuqori normativligi («G») omili bo'yicha sinaluvchilar o'rtasida ishonchli farqlar mavjudligi kuzatildi. Bu omil hissiyotlarga beriluvchanlik ko'rsatkichini belgilovchi omillardan biridir. Buxoro viloyatidan tanlangan respondentlarda hissiyotlarga berilish yuqoriligini ($p\leq 0,05$), Qashqadaryo viloyatidan tanlangan respondentlarda esa bu holatda o'zini boshqarish holatining kuchliligi va shakllanganligini kuzatish mumkin. Buxoro viloyatidan tanlangan respondentlarda emotsional holatlarning ta'siriga tushish ehtimoli kuchli ekanligi, guruhiy me'yorlar va talablarga rioya qilishga moyillik yetarli darajada sezilarli emasligi tadqiqot davomida ma'lum bo'ldi. Qashqadaryo viloyatidan tanlangan respondentlarda esa jismoniy va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish holatlari kuzatildi. Mazkur muassasa rahbarlari natijalari ularning maqsadga erishishda qat'iy harakat qilishlari, ularda faoliyatga yo'nalganlik, mas'uliyat va aniqlik mavjudligini ko'rsatdi, shuning uchun ular ehtimol milliy jamoaga tushishlariga sabab bo'lgan bo'lsa, ajab emas. O'zini baholash adekvatligi omilida ham ma'lum bir statistik farqlar kuzatildi. Bunda Buxoro viloyatidan tanlangan respondentlarga nisbatan Qashqadaryo viloyatida o'zini optimal baholashi hamda narsa va hodisalarni adekvat idrok qilish darajasi yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Rahbar shaxsida psixologik omillar namoyon etilishining o'rtacha - umumiy ko'rsatkichlari (n=295)

Metodikadagi omillar	Hudud	n ₁ ; n ₂	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajasi
Odamovi va muloqotmandlik («A»)	Qashqadaryo viloyati	160	6,93	2,799	0,47	0,63
	Buxoro viloyati	135	6,67	2,367		
Intellekt («B»)	Qashqadaryo viloyati	160	4,93	1,561	0,60	0,55
	Buxoro viloyati	135	4,72	1,809		
Emotsional beqarorlik-emotsional barqarorlik («S»)	Qashqadaryo viloyati	160	5,48	2,215	-0,48	0,14
	Buxoro viloyati	135	6,17	2,244		
Bo'ysunuvchanlik-ustunlik («E»)	Qashqadaryo viloyati	160	5,57	1,922	-2,46	0,05**
	Buxoro viloyati	135	6,74	2,534		
O'zini tuta olish-ekspressivlik («F»)	Qashqadaryo viloyati	160	6,77	2,133	0,58	0,56
	Buxoro viloyati	135	6,48	2,631		
Hissiyotga beriluvchi-xatti-harakatning yuqori normativligi («G»)	Qashqadaryo viloyati	160	5,45	2,953	-2,64	0,05**
	Buxoro viloyati	135	7,04	2,748		
Tobelik-kuchlilik («H»)	Qashqadaryo viloyati	160	5,84	2,156	1,59	0,17
	Buxoro viloyati	135	6,61	2,399		
Emotsional qo'pollik-sezgirlik («I»)	Qashqadaryo viloyati	160	8,11	1,687	-2,46	0,96
	Buxoro viloyati	135	7,07	2,294		
Ishonch-gumon («L»)	Qashqadaryo viloyati	160	7,48	2,328	-1,46	0,14
	Buxoro viloyati	135	6,78	2,159		
Amaliylik – ijodkorlik («M»)	Qashqadaryo viloyati	160	5,14	1,875	-1,88	0,63
	Buxoro viloyati	135	5,98	2,324		
Haqiqatgo'ylik-diplomatlik («N»)	Qashqadaryo viloyati	160	6,89	2,738	-1,27	0,20
	Buxoro viloyati	135	7,54	2,126		

Metodikadagi omillar	Hudud	n ₁ ; n ₂	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajasi
O'ziga ishonch («O»)	Qashqadaryo viloyati	160	8,95	1,725	-4,31	0,05**
	Buxoro viloyati	135	6,87	2,721		
Konservatizm-radikalizm («Q1»)	Qashqadaryo viloyati	160	8,30	1,440	-3,15	0,05**
	Buxoro viloyati	135	6,89	2,593		
Konformlik-nokonformlik («Q2»)	Qashqadaryo viloyati	160	5,61	2,365	-1,35	0,19
	Buxoro viloyati	135	6,28	2,316		
Yuqori darajadagi o'zini nazorat qilish («Q3»)	Qashqadaryo viloyati	160	6,24	1,744	-4,92	0,05**
	Buxoro viloyati	135	7,32	2,254		
Bo'shashganlik-qo'zg'atuvchanlik («Q4»)	Qashqadaryo viloyati	160	8,73	1,855	-1,00	0,13
	Buxoro viloyati	135	6,63	2,836		
O'zini baholash adekvatligi («MD»)	Qashqadaryo viloyati	160	4,95	2,254	-2,27	0,05**
	Buxoro viloyati	135	8,00	1,855		

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01; ***p≤0,001.

«Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnoma» hamda G.Ayzenkning «Individual-tipologik xususiyatlarni aniqlash» testi o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra, «madaniy moslashuvchanlik» omili «ekstraversiya» (r=-0,36; p≤0,05) omili bilan salbiy, «etnik ko'nikmalar» omili «introversiya» (r=0,32; p≤0,05) omili bilan ijobiy korrelyatsiyani qayd etdi.

3-jadval.

«Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnoma» hamda G.Ayzenkning «Individual- tipologik xususiyatlarni aniqlash» testi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=295)

Omillar	Madaniy moslashuvchanlik	Etnik ko'nikmalar	Jamoaviy munosabatlar
Ekstraversiya	-0,36*	0,14	0,17
Introversiya	0,12	0,32*	0,18

Mazkur tahlil natijalariga ko'ra, «madaniy moslashuvchanlik» bilan «ekstraversiya» omillari o'rtasida salbiy bog'lanish aniqlandi (r=-0,36; p≤0,05).

Bu shuni anglatadiki, ekstravert rahbarlar turli madaniyatlarga moslashish qobiliyatida ba'zi, cheklovlarga ega bo'lishi mumkin ekanligidan dalolat beradi. Ekstravert shaxslar odatda ochiq, faol va ijtimoiy muloqotga moyil bo'lishsa-da, ular o'z doiralaridan tashqarida bo'lgan turli madaniy sharoitlarda ishlashda noqulaylik sezishlari aniqlandi. Shuningdek, ular jamoaviy muloqotni afzal ko'rishlari, ammo ularning turli xil madaniyatlarni qabul qilish va ularga moslashish imkoniyatlari pastroq bo'lishi dalillandi. Salbiy bog'lanish shuni ko'rsatadiki, ekstravertlar o'z yondashuvlarini o'zgartirishga unchalik qodir emas va turli madaniy o'zgarishlarga nisbatan biroz past darajada moslashuvchanlik ko'rsatishi aniqlandi. Jumladan, ekstravertlar jamoa ichidagi o'z madaniy qadriyatlarini va uslublarini saqlashga ko'proq moyil bo'ladi. Bu esa ularning madaniy xilma-xillik bilan samarali ishlashiga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, madaniy moslashuvchanlikning past darajada ekanligi turli madaniy vakillar bilan ishlashda ekstrovert rahbarlar uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Olingan natijalarga ko'ra, «etnik ko'nikmalar» omili «introversiya» omili bilan ijobiy bog'lanishlar hosil qildi ($r=0,32$; $p \leq 0,05$). Bu shuni anglatadiki, introvert rahbarlar turli etnik guruhlar bilan ishlashda yuqori darajada moslashuvchanlik va moslashish qobiliyatiga ega bo'ladi. Introvertlar odatda kam muloqotchan ekanliklari moyil bo'lishlari va shaxsning ichki dunyosiga chuqur kirib borishlari bilan ajralib turadi, ularga boshqalar bilan ehtiyotkor va ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda muomala qilish imkonini beradi. Etnik ko'nikmalar uchun introvertlar ko'proq mos keladi, chunki ular boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga va ehtiyojlarini hisobga olishga e'tibor qaratadi. Bu rahbarlarning turli etnik kelib chiqishlarga ega jamoa a'zolari bilan ishlashda o'zaro hurmat va ishonchni oshirishlariga yordam beradi. Shuningdek, introvertlar ko'pincha xushmuomalalik va individual yondashuv ko'rsatib, turli xil etnik nuqtai nazarlarni qabul qilishlari va boshqalarga moslashish uchun ko'proq imkoniyat topadilar. Ushbu bog'lanish etnik ko'nikmalarning introvert rahbarlar tomonidan samarali shakllanishini ko'rsatadi, chunki ular boshqalarning etnik xususiyatlariga sezgir bo'lishga va turli millat vakillariga nisbatan aniq yondashuvlarni ishlab chiqishga intiladilar.

4-jadval.

«Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnoma» hamda K. Tomasning «Ziddiyatli holatdan chiqishga bo'lgan yetakchi motivatsiya ko'rsatkichlarini aniqlash» testi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=295)

Omilar	Madaniy moslashuvchanlik	Etnik ko'nikmalar	Jamoaviy munosabatlar
Bahs-munozara	0,13	0,12	0,35*
Hamkorlik	0,34*	0,16	0,18
Kelishuv	0,18	0,38*	0,14
O'zini chetga olish	0,14	0,22	0,16

Moslashuv	0,12	0,32*	0,19
-----------	------	-------	------

Mazkur natijalar rahbarlik faoliyatida shaxsning tipologik xususiyatlari (ekstraversiya va introversiya) madaniy va etnik jihatdan moslashuvchanlik qobiliyatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, introvert rahbarlar etnik ko'nikmalarni samarali rivojlantiradi, ekstravert rahbarlar esa o'zlarining madaniy moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

«Zamonaviy rahbar boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-etnik xususiyatlarini o'rganuvchi so'rovnoma» hamda K.Tomasning «Ziddiyatli holatdan chiqishga bo'lgan yetakchi motivatsiya ko'rsatkichlari»ni aniqlash testi o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra, «madaniy moslashuvchanlik» omili «hamkorlik» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, «etnik ko'nikmalar» omili «kelishuv» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) hamda «moslashuv» ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, «jamoaviy munosabatlar» omili «bahs-munozara» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy korrelyatsiyani qayd etdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, «madaniy moslashuvchanlik» va «hamkorlik» omillar o'rtasida ijobiy bog'lanish qayd etildi ($r=0,34$; $p\leq 0,05$). Bu shuni anglatadiki, madaniy o'zgarishlarga oson moslashadigan rahbarlar hamkorlikka moyil bo'ladi va jamoada o'zaro tushunishni kuchaytirishga intiladi. Rahbarning madaniy moslashuvchanligi turli xil madaniyatlar va millatlar bilan ishlashda uning samaradorligini oshiradi, bu esa jamoada hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim asos yaratadi. Shuningdek, rahbar boshqalar bilan birgalikda yaqin faoliyat olib borishi ularga zavq bag'ishlaydi va o'z boshqaruv uslublarini jamoaning turli ehtiyojlariga moslashtirishga harakat qilishadi. Bu o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati rahbarlik faoliyatida yanada barqarorlikka olib keladi. Shuningdek, turli madaniyatlarni o'rganish va qabul qilish orqali rahbarlar hamkorlikka ochiqroq bo'ladi, jamoa ichida doimiy hamkorlik muhitini yaratadilar. Bu ijobiy bog'lanish rahbarning madaniy xilma-xillikni anglashi va turli madaniyat vakillari bilan birgalikda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlari uchun muhim sanaladi.

«Etnik ko'nikmalar» va «kelishuv» omili o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) rahbarlarning turli etnik kelib chiqishga ega bo'lgan shaxslar bilan ishlashda ularning kelishuvga moyilligini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, etnik xilma-xillikni hurmat qiluvchi va turli madaniyatlarning ehtiyojlarini tushuna oladigan rahbarlar jamoadagi turli guruh vakillari o'rtasida tinch va barqaror munosabatlarni shakllantirishga moyil bo'ladilar. Kelishuvchan rahbarlar etnik farqlarni boshqaruvda hisobga olishi, bu farqlarni hurmat qilishi va barcha jamoa a'zolarining fikrlarini inobatga olishi muhimdir. Rahbarning etnik jihatdan moslashuvchanligi jamoadagi turli etnik guruhlar o'rtasida o'zaro tushunishga yordam beradi va qarama-qarshiliklarni minimallashtiradi. Turli etnik guruhlar vakillari bilan ishlashda kelishuvni shakllantirish ularning turli ehtiyoj va qarashlarini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, bu esa rahbarning boshqaruvda kelishuvni ta'minlashda sezilarli darajada samaradorlikni ko'rsatishini ta'minlaydi.




Shuningdek, bu natijalar rahbarning etnik xilma-xillikni qabul qilishi va jamoaning barcha a'zolar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

